

JAHON VA O‘ZBEK ADABIYOTI

UO‘K(UDC, УДК): 821.21

BHAKTI ADABIYOTIDA BADIYYAT MASALALARI¹⁷

Muhibova Ulfatxon Uchqunovna

filologiya fanlari doktori, professor

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent, O‘zbekiston

E-mail: ulfatmuhib8@mail.ru

Orcid ID: 0000-0002-8674-1904

Tel: +998-94-644-30-37

ANNOTATSIYA

Hind adabiyotini davrlashirishda o‘rta asrlar davri bhakti adabiyoti nomi bilan yuritiladi. Ushbu nomning kelib chiqishiga shu davrda xalq o‘rtasida keng tarqalgan, xalq manfaatlari yo‘lida shakllangan bhakti diniy-islohotchilik harakati va ushbu harakatning adabiyotga ta‘siri natijasida vujudga kelgan mazmunan va xajman juda boy adabiy meros tushuniladi.

Ushbu maqolada bhakti adabiyotidagi badiiyat masalasiga e‘tibor qaratiladi. Bunda shu davrda bhakti harakati tufayli xalq tilidan adabiy tilga aylangan braj va avadxi tillari, ularning o‘z davrining yetakchi ijod tiliga aylangani va bunda bhakt shoirlarning alohida o‘rni va hissasi baholab o‘tiladi. Shuningdek, badiiy asarlardagi til va uslub masalasi, shu davrda keng tarqalgan she‘riy va nasriy janrlar, ularning o‘ziga xos jihatlari, bhakti she‘riyatida qo‘llanilgan she‘riyat kategoriyalari, xususan, rasa, alankar va dxvani kategoriyalari bhakt shoirlar ijodi misolida ochib beriladi. Bhakti davri shoirlari ijodini o‘rgangan taniqli adabiyotshunos olimlarning bhakt shoirlar va ularning asarlari haqidagi muloxazalari ham keltirib o‘tiladi.

KALIT SO‘ZLAR

Bhakti, krishnabhakti, islohot, faylasuf, Ram, sagun, nirgun, rambhakti, ashtachxap, braj, Krishna.

Received: March 10, 2025

Accepted: April 8, 2025

Available online: May 2, 2025

¹⁷ **For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**

Muhibova U. Bhakti adabiyotida badiiyat masalalari.// Komparativistika (Comparative Studies). — 2025. — Vol.2, № 2(6) — B. 238-250.

ARTISTIC ISSUES IN BHAKTI LITERATURE*Muhibova Ulfatkhon Uchqunovna*Doctor of Philological Sciences, Professor
Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

E-mail: ulfatmuhib8@mail.ru

Orcid ID: 0000-0002-8674-1904

Tel.: +998-94-644-30-37

ABSTRACT

The medieval period in Indian literature is known as the Bhakti era. This term refers to a rich and voluminous literary heritage that arose due to the influence of the Bhakti religious-reform movement on literature, a movement widespread among the people at the time and formed in the interests of the people.

This article focuses on artistry in Bhakti literature. In this context, Braj and Awadhi, languages that became literary thanks to the Bhakti movement, are examined, and the special role and contribution of Bhakti poets, who became leading creative voices of their time, are evaluated. The article also discusses language and style in artistic works, widespread poetic and prose genres of that time, their unique features, as well as the categories of poetry used in Bhakti poetry, in particular rasa, alankar, and dhvani, illustrated by the works of Bhakti poets. The opinions of well-known literary scholars who have studied the works of Bhakti poets and their creations are presented.

KEY WORDS

Bhakti,
Krishnabhakti, reform,
philosopher, Ram, sagun,
nirgun, rambhakti,
ashtachhap, braj, Krishna.

ПРОБЛЕМЫ ХУДОЖЕСТВЕННОСТИ В ЛИТЕРАТУРЕ БХАКТИ

Муhibова Ульфатхон Учкуневна
доктор филологических наук, профессор
Ташкентский государственный
университет востоковедения
Ташкент, Узбекистан
E-mail: ulfatmuhib8@mail.ru
Orcid ID: 0000-0002-8674-1904
Тел: +998-94-644-30-37

АННОТАЦИЯ

Средневековый период индийской литературы известен как эпоха Бхакти. Происхождение этого названия связано с религиозно-реформистским движением Бхакти, сформировавшимся в интересах народа и широко распространенным в этот период, и богатым по содержанию и объему литературным наследием, возникшим в результате влияния этого движения на литературу.

В данной статье рассматривается вопрос художественности в литературе Бхакти. При этом характеризуются языки брадж и авадхи, которые благодаря движению бхакти в этот период превратились из народных языков в литературные, а также оценивается особая роль и вклад поэтов-бхактов, ставших ведущей творческой силой своего времени. Кроме того, на примере творчества поэтов-бхактов раскрываются вопросы языка и стиля в художественных произведениях, широко распространенные в этот период поэтические и прозаические жанры, их особенности, категории поэтики, используемые в поэзии Бхакти, в частности, раса, аланкар и дхвани, проиллюстрированные примерами из произведений поэтов-бхактов. Представлены также точки зрения известных исследователей творчества и произведений поэтов-бхактов.

**КЛЮЧЕВЫЕ
СЛОВА**

Бхакти,
кришнабхакти,
реформатор, философ,
Рам, сагун, ниргун,
рамбхакти, аштачхап,
брадж, Кришна.

KIRISH

Hindiston xalqlari adabiyotida bhakti adabiyoti mamlakatning har bir milliy adabiyotida mavjud. Ushbu adabiyotning kelib chiqish asoslari hind xalqining diniy-falsafiy qarashlariga asoslangan boʻlib, u jamiyatdagi mavjud hindular dinining kastachilik tizimiga qarshi va, umuman, dinning notoʻgʻri targʻib qilinishiga qarshi kurash gʻoyasi bilan chiqqan harakatdir. Bu davrda din peshvolari oddiy xalqni Yaratgan bilan yaqinlashtirish oʻrniga ularni oddiy ibodatxonaga kirishdan ham mahrum qilib qoʻyadilar. Natijada jamiyatda tushkunlik, umidsizlik kayfiyati kuchaya boradi. Faqat Yaratgangagina ishonib, undan umid qilib yashaydigan oddiy kambagʻal xalqni ularning yagona suyanchigʻidan ham din peshvolari mahrum qiladilar. Buni tashqaridan kuzatgan oʻrta asr hind faylasuflari jamiyatdan yoʻqolib borayotgan insonparvarlikni qayta tiklash maqsadida din peshvolariga qarshi ravishda hinduizm dinini isloh qilishga kirishadilar. Natijada, xalq oʻrtasida juda keng tarqalgan bhakti diniy-islohotchilik harakati vujudga keladi. Bhakti ikki gʻoya asosida rivojlandi – “Yaratganga mehrlil va sadoqatli boʻlish” va “Yaratgan oldida barcha tengdir”. Faylasuflar oʻzlarining ushbu gʻoyalarini xalq ichida yurib targʻib qila boshlaydilar. Inson, uning maʼnaviyati, qalbi va gʻoyalari bilan bogʻliq boʻlgan adabiyot bhakti gʻoyalarini targʻib qilishda asosiy qurol sifatida xizmat qiladi. Natijada bagʻriga umid va ishonch shamollari yetib kelgan xalq orasidan yetuk shoirlar yetishib chiqq boshladi. Shu bois bhakti harakati taʼsirida vujudga kelgan kattagina adabiy meros bhakti adabiyoti nomi bilan yuritila boshlandi. Bhakti harakati avval janubda keyin shimolda shakllanib rivojlandi va Boburiylar hukmronligi davrida bhakti oʻzining taraqqiyot choʻqqisiga erishdi.

ASOSIY QISM

Hindistonda oʻrta asrlarda Boburiylar hukmronligi davrida rivojlangan Bhakti taʼlimoti inson ongini oʻzgartirish yoʻlida shakllangan diniy falsafiy harakat boʻlib, ushbu taʼlimot oʻrta asr faylasuflari tomonidan targʻib qilindi. Ular esa oʻz gʻoyalarini adabiyot vositasida amalga oshirdilar. Natijada shu davrda Bhakti gʻoyalari bilan toʻyingan juda katta va boy adabiy meros vujudga keldi.

Bhakti ta'limoti nafaqat inson ongini balki adabiyot mazmunini ham o'zgartirishga, adabiyotda yangi janrlar, syujetlar, motivlar va obrazlar vujudga kelishiga sabab bo'lgan. Bhakti adabiyoti ikki muhim diniy g'oyani ilgari surdi "Yaratganga mehrli va sadoqatli bo'lish" hamda "Yaratgan oldida barcha tengdir". Ma'lumki, hind jamiyatida ikki mingdan ortiq yil davomida xalq e'tiqod qilib keladigan Ram va Krishna ma'budlari mavjud. Demak, o'rta asr insonining mehri va sadoqati ayni shu ma'budlarga qaratilgan. Bhakti harakati tufayli ushbu ma'budlarning jamiyatdagi o'rni va ahamiyati avalgidan ancha kuchaya bordi. Bhakti targ'ibotida esa faylasuflar ushbu ikki ma'budlarning ildiziga murojaat qildilar. Bu ildiz esa jahonga tanilgan qadimiy hind eposlari Ramayana va Mahabharata eposlariga borib taqaladi. Natijada bhakti g'oyalari ta'sirida bo'lgan shu davr ijodkorlari sanskrit tilidagi Ramayana va Mahabharata eposlarining asosiy mazmunini o'zlashtirdilar. Shoirlar ulardan syujet, obraz, motiv va g'oyalarni olib ularning mazmuniga bhakti g'oyalarini singdirgan holda xalq tilida yangi-yangi asarlar yaratdilar. Shu tarzda bhakti g'oyalari adabiy jarayonga chuqur kirib borib adabiyotdagi janrlarning sayqallanishi va rivojlanishiga hamda xalq tillarining adabiy til sifatida shakllanishiga ham juda katta hissa qo'shdi.

Jumladan, mahaqavya janridagi bu eposlar asosida tamil, assam, bengal va gujarot adabiyotlarida syujeti sanskrit eposlaridan olingan *epik poema* janri vujudga kelgan. Ilk o'rta asrlarda yashagan dramaturg Kalidasaning "*Meghaduta*" ("Xabarchi bulut") asari, XII asr bengal shoiri Dxoining "*Pavapadutam*" asari, XIV asr malayalam adabiyotida muallifi noma'lum "*Uppukili sandesham*" ("Uppukili xabari") kabi asarlar epik poemalardir. Ularning barchasining syujet manbai o'sha qadimiy sanskrit eposlari bo'lgan.

Bhakti adabiy merosi o'rta asr adabiyotining erkin, asosan g'oya va fikr ifodasi uchun, bu davrda esa aynan bhakti g'oyalarini targ'ib qilish uchun qulay bo'lgan va shu davr she'riyatining asosiy janrlari hisoblangan दोहा-(doha) – ikkilik, तृपद(tripad) – uchlik, चौपद(chaopad) – to'rtlik, पंचपद(panchpad) – beshlik, सतसई(satsai) – yettilik hamda विनाई(vinai), रमैनी(rameyni) bhakti g'oyalarini

targʻib qilishga xizmat qilgan. Epik poema janrida shu davrning taniqli bixakt shoiri Tulsidas Ram maʼbudiga boʻlgan oʻzining chuqur eʼtiqodi va mehri tufayli sanskrit tilidagi Ramayana eposini xalq tili boʻlgan avadxi tilida asarga bhakti gʻoyalarini chuqur singdirgan holda uni qayta yaratgan va bugungi kunda qadimiy Ramayana emas Tulsidasning “Ramacharitamanasa” asari xalq oʻrtasida koʻproq mashhurdir. Tulsidas oʻz doxalaridan birida Ram maʼbudini madh etib shunday deydi:

राम भरोसो, राम बल, रामनाम विस्वास।

सुमीरत सुभ मंगल कुसल मानगत तुलसीदास।

Ramga ishon, Ram kuch-qudrat, Ram eʼtiqod

Ramni esla tongdan asl baxt uchun sen ham Tulsidas.

Krishnaga eʼtiqod qiluvchi ijodkorlar esa maʼbud Krishnaga boʻlgan oʻz mehr va sadoqatlarini ifoda qilishda Mahabharata eposiga murojaat qilganlar va shu asosda krishnabhakti sheʼriyati oʻzining taraqqiyot choʻqqisiga erishgan. Bhakt shoirlar Mahabharata eposidagi maʼbud Krishna hayotining turli davrlarini oʻz sheʼriyatining yetakchi mavzusi qilib olgan. Jumladan, krishnabhakt Surdas oʻz ijodini bal Krishnani, yaʼni bola Krishnani kuylashga bagʻishlagan. Shoir Krishnadas esa Krishnaning Radxa bilan boʻlgan sevgi mojarolari mavzusiga bagʻishlagan. Surdasning Mahabharata voqealari bilan bogʻliq ashtapad – sakkiz misralik sheʼridan namuna:

Govardhan togʻini qoʻlda koʻtarib,

yangi anʼanani boshlagan Sensan,

Indraga saboq boʻldi bu,

dedi taʼzim ila u:

“Men nohaqlik qildim,

ey, rahmdil Oliy zot!

Senga bosh egaman,

yuragim toʻri senga!”

(Sazanova N.M., 1979, 154-156)

shoir Krishnadas Braj yeri go‘pilarining¹⁸ ma’bud Krishnaga bo‘lgan mehrini
o‘zining doxa - ikki misralik she’rida bayon etgan:

कमल मुख देखत कौन अघाई।

सुनहि सखि! मेरे लोचन अलि मुदित रहे अरुझाई। (Hargulal, 2001, 10)

Nilufar chehrani ko‘rib toliqar kimning ko‘zi,

Tingla, ey dugona! Ko‘zlarim xiralashsa ham ko‘rgim keladir Uni.

yoki bo‘lmasa,

री!इहि मोहन की मोहनता मोह्यौ मेरौ मानस हंसु।

कहा करौं सिर परी ठगौरी सुनत मोहन बंसु। (Hargulal, 2001, 44)

Ey, bu yoqimtoy istarasi bilan rom etdi ko‘ngillarni,

Nima qilay, lol qoldim tinglab uning nay navosini.

Shuni ta’kidlash joizki, bhakti harakati ikki yo‘nalishda rivojlangan, sagun bhakti va nirgun bhakti. Sagun bhakti yo‘nalishi bu biron bir qiyofaga ega bo‘lgan ma’budga e’tiqod qilishni nazarda tutadi, bu yerda, albatta, Ram yoki Krishna ma’budlari nazarda tutiladi. Nirgun bhakti esa inson qalbida mavjud bo‘lishi mumkin bo‘lgan abstrkst xudoga, ya’ni hech qanday ko‘rinish yoki qiyofaga ega bo‘lmagan, faqat his qilib anglanadigan va faqat inson qalbidagina mavjud bo‘lishi mumkin bo‘lgan xudoga e’tiqod qilishni nazarda tutadi. Nirgun bhakti yo‘nalishida ijod qilganlardan Kabir, Dadu Dayal, Rajjab, Malukdas kabi shoirlarni tilga olish mumkin. Kabir ko‘proq doxa - ikkilik, satsai - yetti misralik, chaupai - to‘rt misralik kabi janrlarda ijod qilgan. Uning doxalari butun Hindiston miqyosida juda mashhur, chunki u inson qalbida yashaydigan Xudoni kuylagan. U din peshvolarini Yaratgan haqidagi noto‘g‘ri qarashlarini o‘z doxalarida tanqid ostiga olgan.

Bhakti adabiy merosida ijodkorlar ushbu she’riy janrlardan juda erkin foydalanganlar, ya’ni she’rda shaklga qat’iy rioya qilish shart bo‘lmagan, she’rda mazmun, ya’ni bhakti g‘oyasi yetakchi ahamiyatga ega bo‘lgan. Chunki, deyarli barcha shoirlarning she’riyatida qofiya masalasi hal qilinmagan, ular yaratgan

¹⁸Krishnaga oshiqqlarni go‘pi deb atashgan

she'rni, ya'ni doxa (ikkilik), tripad (uchlik), chaupai (to'rtlik) va satsailarni (yettilik) qofiyalangan nasr desak, haqiqatga yaqin bo'ladi.

Badiiy asarning badiiyligi, undagi til va uslub masalalari, ijodkorning iqtidori, ilhomi, zehni va dunyoqarashiga bog'liq bo'lgan holda shakllanadi. Yaratilgan asarning til xususiyatlariga qarab shoirning badiiyatdagi mahoratini anglash, baholash mumkin. Bhakti g'oyalari targ'ib qilishda eng katta hissani "Ashtachxap" – sakkiz shoir ittifoqi shoirlari qo'shgan. Ular yaratgan she'riyat ummoni bugungi kunda o'rta asr bhakti adabiyotining eng sermazmun va eng badiiyati kuchli she'riyat hisoblanadi.

Boburiylar davri bhakti adabiyoti shu saltanat hududida yashaydigan bir qancha xalqlar tillarida, ya'ni bengal, gujarot, rajastxani, maytxili, avadxi va braj tillarida yaratilgan. Lekin, eng katta meros avadxi va braj tillarida yaratilgan.

Braj tili Boburiylar davrida mahalliy xalqning so'zlashuv tili bo'lgan, keyinchalik shu til asosida bugungi hindiy tili kelib chiqqan. Ayni bhakti harakatining targ'ibotchilari braj tilini yuksak darajada rivojlangan adabiy tilga aylantirgan. Bunda, albatta, Surdas boshchiligidagi "Ashtachxap" shoirlarining o'rni juda kattadir. Jahon miqyosida o'rganiladigan bhakti adabiyotini braj tilidagi manbalar orqali o'rganish mumkin, ayniqsa, krishnabhakti she'riyatini. Xususan, ko'pgina adabiyotshunos olimlar ham braj tilini adabiy til sifatida shakllanishida "Ashtachxap" shoirlari ijodi yetakchi ahamiyat kasb etgan, degan fikrni bildiradilar (Prabxudayal Mittal. Surdas ki varta. – Matxura. 1982. Xagulal. Krishnadas. – Dehli, 2001. Sarla Chaudxri. Nanddas. – Dehli. 2006 va boshqalar). Braj tilidagi ilk nasriy asar VII asrga tegishli bo'lgan "Chaurasi veyshnavan ki varta", ya'ni "84 vishnuit xayoti" asari ham bhakti g'oyalari bilan chambarchas bog'liqdir. (Dvarkadas Parikh, 1979). Krishnadas ijodini o'rgangan Xargulal ham braj tilining badiiy til sifatida sayqal topishida Surdasning tutgan o'rni haqida alohida ta'kidlab, "Bhakti davrida Ashtachxapning buyuk shoiri Surdasning sermazmun she'rlari tufayli braj tili adabiy til sifatida shakllandi va shu davrning badiiy jihatdan rivojlangan tiliga aylandi" (Sazanova N.M., 1979, 39) – deb yozadi. Yoki bo'lmasa, Nanddas o'zining

“Rupmanjari” asarida Sarasvati ma’budasiga murojaat etib, undan shunday tilak so‘ragan:

रसमय सुरसुति कै पग लागो। अस आक्षर दयो इही वर मानगो।

सुनदर कोमल वचन आनूठे। कहत सुनत समुझत अति मीठी।(Sarla Choudhry, 2006, 39)

mazmuni: “Men ilm ma’budasi Sarasvatiga iltijo qilib so‘raymanki, u menga shunday so‘z va iboralar bersinki, ular go‘zal, yumshoq (ko‘ngilni erituvchi) va ajoyib bo‘lsin hamda so‘zlaganda, tinglaganda va tushunganda juda ma’nodor va yoqimli bo‘lsin”.

Nanddas asarlarining tilini o‘rgangan Sarla Chaudxri turli adabiyotshunos olimlarning fikrini keltirib o‘tadi, jumladan, “दिनदयाल गुप्त ने पढ़ ललित्य और भाषा मधुर्य की दृष्टि से अष्टछाप कवि नन्ददास को “प्रथम” घोषति किया।”(Sarla Choudhry, 2006, 40), ya’ni “Dindayal Gupta pandlarning go‘zalligi va ma’nodorligi bo‘yicha Ashtachxap shoirlari orasida Nanddasni birinchi qo‘yadi”. Yoki bo‘lmasa, Xazari Prasad Dvivedining aytishicha, “So‘z birikmalarini ustalik bilan tanlab, she’rda shunday ma’noviy olam hosil qilinadiki, o‘quvchi undan hayratda qoladi. So‘zlarning ohangdorligi va ma’nodorligi bir-biri bilan qo‘shilishi natijasida mazmun kuchayib boraveradi. Ashtachxap shoirlari orasida Nanddasdan boshqa so‘zdagi mazmun va ohangdan ustalik bilan foydalangan biron-bir shoirmi bilmayman” (Hazari Prasad Dvivedi, 2010, 40).

Nanddas she’riyatiga so‘zlarning ma’nodorligi xosdir. She’rda so‘zni ma’no asosida tanlash Nanddas ijodiga mansub. Masalan, quyidagi misralarda Nanddasning so‘z tanlash mahorati Go‘pilar holatini aniq va ta’sirchan qilib ochib beradi:

तिनके नूपुर नाद सुने जब परम सुहाए।

तब हरि के मन नैन सिमिति सब स्रवननि आए।

झुनक मुनक पुनि छबिलि भांति सब प्रगट भई जब।

पिय के अंग-अंग सिमिति मिले छबिलि नैननि तब।[Sarla Choudhry, 2006. 40].

mazmuni: Uning (Krishnaning) yoqimli kuyining ovozini eshitgan go‘pilarining qalbi rohatlanadi, hatto Yaratganning o‘zi ham bundan mast bo‘ladi. Atrofdan har narsa go‘zal ko‘rinib, bir-biriga mehri oshadi.

Bu yerda 2,3,4-misralarning markaziy qismlarida *simiti*, *chxabili*, *simati chxabili* kabi so‘zlarni joylashtirish she’rda ohang va ma’noni ta’minlashdagi shoirning mahoratini ko‘rsatadi. She’rda so‘zning ahamiyatiga alohida e’tibor Nanddasning barcha she’rlarida ko‘zga tashlanadi.

Lekin, bhakti she’riyatini kuzatganda ayrim kamchiliklar ham kuzatildi. Bunday kamchiliklar haqida hind adabiyotshunoslari ham fikr bildirib o‘tganlar¹⁹. Kamchiliklar sifatida quyidagilarni tilga olish mumkin:

Birinchi, she’rlarda tinish belgilari qo‘yilmagan, jumladan, Chxitsvami she’rini kuzatamiz:

अरी हौं स्याम रूप लुभानी।
 मारग जाति मिले नंद नंदन तन की दसा भुलानी।
 आगे कृष्ण पाछे कृष्ण इत कृष्ण उत कृष्ण
 जित देखों तित कृष्ण भई री।
 (Vasant Yamdamil, 2003, 9-10)

mazmuni:

Ey Shyam, surating tortar qalblarni.

Ko‘chada keta turib uchratdim Nand Nandani, bo‘ldi holim behol.

Oldinda Krishna, orqada Krishna, u yerda Krishna, bu yerda Krishna

qayerga qarasang, o‘sha yerda Krishna ey o‘rtoq.

Braj tilidagi ushbu she’rda bironta tinish belgisi qo‘yilmagan, lekin o‘zbekcha tarjimada she’rni to‘g‘ri anglash uchun tinish belgilar qo‘yib o‘tildi. Ma’lumki, tinish belgilari she’rni ifodali o‘qish, she’rning mazmunini to‘g‘ri tushunish uchun zarur. Bhakti she’riyatida tinish belgilari qo‘yilmagan ko‘pgina she’rlarni kuzatish mumkin.

¹⁹Nanddas ijodini o‘rgangan Sarla Chaodxri va boshqalar.

Ikkinchi kamchilik shuki, soʻzlarda imloviy xatolar oʻtib ketgan, yaʼni uzun unililar qisqa, qisqa unililarni uzun berilgan, oddiy *e* yoki *o* unililari diftonglar *ey*, *ao* bilan berilgan, yoki boʻlmasa keraksiz yerlarga nuqta qoʻyilgan holatlar tez-tez uchraydi.

Bhakti adabiyotida ona tilisi braj boʻlmagan shoirlar ham ijod qilgan, jumladan, shoira Mirabai Rajastxan shtatidan Braj yurtiga kelgan va bhakti yoʻlini tanlab oʻz hayotini maʼbud Krishnani kuylashga bagʻishlagan. Shu bois uning sheʼriyatida oʻz hududi tiliga oid soʻzlar ham uchrab turadi. Yoki boʻlmasa, Krishnadas ijodidagi til masalasini oʻrgangan Xargulal bu masalaga oʻz munosabatini bildirib shunday deydi - Krishnadas sheʼriyatida tatsam (shakli va mazmuni oʻzgarmagan soʻzlar), tadbxao (shakli oʻzgarmagan, lekin mazmuni oʻzgargan), deshaj (mahalliy soʻzlar) hamda chet tilidan kirgan soʻzlar, shuningdek, qoʻshma soʻzlar ham ishlatganini aniqlagan holda Krishnadas tiliga shunday taʼrif beradi:

“कवि की भाषा ब्रज भाषा है और उसकी कविता में अभीव्यक्ति की कुशलता, धवनी की माधुरता, चमत्कृति, की प्रमुखता, चित्रोपामता, आलंकारिक सजीवता, छंद की प्रभावानवीता, तथा समन्वयात्मक प्रवृत्ति सराहनीय है।” (Hargulal, 2001, 49), yaʼni, “Shoirning tili braj tilidir, uning sheʼriyati ifodaliligi, serjiloligi, sirlilikning kuchliligi, tasvirning oʻtkirliigi, bezaklarning beqiyosligi, misralarning taʼsirchanligi, shu bilan birga, soddalikning ham mavjudligi bilan ajralib turadi”.

Nanddas alankarlardan keng foydalangan, jumladan, sandeh va utpreksha alankarlaridan foydalanib, Krishnadan ayriliqdagi Radxaning holatini tasvirlagan,

जनु धन तें बिजुरी बिछुरी मानिनि-तनु काछें।

किधौं चंद्र सो कासि चंद्रिका रहि गइ पाछें।

(Sarla Choudhry, 2006, 43).

Mazmuni:

Sen eng qadrli boyligingdan ayriliqdasan.

Qani yorugʻ oying, tun oysiz boʻlsa, bosar qorongʻulik.

Hind she'riyatining qoidalari aslida sanskrit adabiyoti tarkibida shakllangan, xususan, "Ramayana" va "Mahabharata" eposlari tarkibida. She'riyat haqidagi ilk nazariy asar esa "Natyashastra" asari bo'lib, uning mazmunida sanskrit she'riyati asosida turli nazariy fikrlar jamlangan. Bu nazariy asar sanskrit she'riyatidagi yetakchi uch kategoriya – rasa (mazmun ustuvorligi), alankar (bezak, shakl ustuvorligi) va dxvanilar (ichki yashirish ma'no mavjudligi) haqida bo'lib, bu kategoriyalarning har biri alohida o'rganilib, ularning nazariy asoslari yozib qoldirilgan. Rasa, alankar va dxvani kategoriyalari qadimda ham, bugungi kunda ham hind she'riyatining asosiy kategoriyalari hisoblanadi. Bu kategoriyalarsiz mazmunli va ta'sirchan she'r yozish qiyin. Chunki, ular she'riyatning yuragi, tanasi va ichki mazmunini o'zida mujassamlantiradi. Qadimiy Hindistonda esa she'riyatga oid mazkur uch hodisa nazariy jihatdan puxta ishlab chiqilgan. Undan keyingi davrda esa "Kavyadarsha", "Alankarshastra", "Dxvanyaloka" kabi nazariy asarlar yaratilgan. She'riyatga oid bu asarlar nazariy jihatdan shunchalik mukammalki, ular hali hanuz Hindiston xalqlari she'riyatining nazariy asoslari sifatida xizmat qilib kelmoqda va ulardagi fikr va muloxazalar o'z ahamiyatini bugungi kunda ham yo'qotmagan.

XULOSA

Demak, sanskrit she'riyatida "so'z" tushunchasi juda katta ahamiyat kasb etadi va har bir kategoriyaning she'riyatdagi muvaffaqiyati shoir iqtidori bilan tanlangan "so'z" degan tushunchaga bog'liq. Milodning VII asrlarida yashagan taniqli sanskrit shoiri va "so'z" nazariyotchisi Bxaratrixarining "Vakyapadya", ya'ni "So'z haqida so'z" nomli nazariy kitobi she'riyatda va, umuman, ijodda so'zning ahamiyatining yuksakligi, har bir aniq va chuqur ma'noli fikrning asosida so'z va faqat to'g'ri tanlangan so'z yotishini nazariy jihatdan asoslab bergan.

Bhakt shoirlar o'z she'riyatida qadimiy sanskrit she'riyati kategoriyalaridan rasa va alankardan juda unumli foydalanganlar. Lekin, ta'kidlab o'tish joizki, shoirlar bu kategoriyalarni maxsus emas, aytilmoqchi bo'lingan fikrga mos va uni mag'zini ochib berishda ahamiyati zarur bo'lgan hollardagina qo'llaganlar, chunki, bhakti hodisasi, ma'lumki, mazmun va g'oya bilan bog'liq, shu bois unda shakl

emas, mazmun ustuvorligi muhim va, aynan, shu narsa she'r yaratishda ijodkor tomonidan kategoriya tanlashga asos bo'lib xizmat qilgan.

Bhakti adabiy merosi bizga shuni ko'rsatdiki, bu adabiyot, asosan, g'oya targ'iboti yo'lida shakllangan va she'riy misralar bitishda, asosan, mazmunga va milliy an'analarga e'tibor qaratgan. Milliy an'analar esa, bhakti adabiyotining qadimiy eposlar bilan bog'liqligidan kelib chiqqan holda o'z-o'zidan she'riyatga kirib kelgan.

Bhakti adabiyoti o'z mazmuni, shakli orqali ushbu she'riyat kategoriyalarini ham adabiy jarayonda faollashuviga katta hissa qo'shgan, chunki bhakt shoirlar ijodida ayni mana shu kategoriyalar juda keng qo'llanilganligini kuzatish mumkin.

Bhakti adabiyotini yaratgan shoirlar o'zlarining so'zlashuv tilida ijod qilgan va shu asosda xalq so'zlashuv tilini o'z davrining adabiy tiliga aylantirgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Сазанова Н.М. Некоторые особенности поэзии бхактиXVIв. на языке брадж. – в кн.: Литературы Индии. – М.: 1979. – С. 65-72.
2. Prabhudayal Mittal. Surdas ki varta. – Matxura. 1982. Xagulal. Krishnadas. – Dehli, 2001. Sarla Chaudxri. Nanddas. – Dehli. 2006 va boshqalar
3. द्वारकादासपारीख।(Dvarkadas Parikh).चौरासीिैष्णिनकीिाताय।– पिना, 1979.
4. मीरा कांत। मीराबाई मुखि की सावधका। – वदल्ली, 2002.
5. िसंत यमदावमल। (Vasant Yamdamil). छीतस्वामी। बीबा प्रेस. – वदल्ली,2003. 6. सारला चौधरी। (Sarla Choudhry). नंददास । शकुण प्रीिसय । – वदल्ली,2006. 7. हरगुलाल।(Hargulal). कृष्णदास । – वदल्ली,2001.
8. हजारीप्रसाद द्वीेदी। (Hazariprasad Dvivedi). कबीर । राजकमल प्रकाश्र । – वदल्ली, 2010